

## Yulduz Turdiyeva

### "Galdir"

Visit "[Galdir](#)" on [MotoLyrics.com](https://MotoLyrics.com)

Beqasam to'nlar kiyib, buncha mani kuydirasan,  
Har zamonda bir qarab, voy, beajal o'ldirasan?  
Tog'da yurgan ul kiyikka men nechun zanjir solay,  
Sen birovning yori bo'lsang, men nechun ko'ngil qo'yay?  
Oq ilon, oppoq ilon, oydinda yotgoning qani,  
Men yomondin ayrilib, yaxshini topgoning qani?  
Gulsapsarga qarang, suvga qarab qayriladi,  
Bevafo yorni ko'rib, o'lmay turib ayriladi.

Yorim ketaman deydi, ketkizgani qo'ymayman,  
Yo'llariga chim bosib, o'tkizgani qo'ymayman.  
Ketsang ketaver, yorim, ketsang nima parvoyim,  
Bu jonim omon bo'lsa, yana bitta suygonim.

Samarqandning soyiga tushdi tillo uzugim,  
Qachon kelar ekanlar, e, ul ko'zlari suzugim.  
Ketsang ketaver, yorim, ketsang nima parvoyim,  
Bu jonim omon bo'lsa, yana bitta suygonim.

Bevafo yorni ko'rib, o'lmay turib ayriladi...

Visit [Yulduz Turdiyeva](#) page on [MotoLyrics.com](https://MotoLyrics.com), to get more lyrics and videos.